

SALOHIDDIN MAMAJONOV-POETIK NUTQ VA USLUB TADQIQOTCHISI

Go‘zalxon Muhammadjonova

Filologiya fanlari doktori, professor

Rushana Rajabaliyeva

Filologiya fakulteti o‘zbek tili

yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr munaqqidlaridan biri bo‘lgan Salohiddin Mamajonov ijodiy faoliyati hamda badiiy adabiyotdagi muhim tushunchalar bo‘lmish poetik nutq hamda uslub kabilarga doir ilmiy, tanqidiy, falsafiy hamda badiiy yondashuvlari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Nutq turlari, poetik nutq, obraz, obrazlilik, syujet, kompozitsiya, badiiy til.

Annotation: This article discusses the creative activity of Salohiddin Mamajonov, one of the critics of the 20th century, as well as his scientific, critical, philosophical, and artistic approaches to important concepts in fiction such as poetic speech and style.

Keywords: Types of speech, poetic speech, image, imagery, plot, composition, artistic language.

Аннотация: В данной статье рассматривается творческая деятельность одного из критиков XX века Салахиддина Мамаджонова, а также его научные, критические, философские и художественные подходы к таким важным понятиям художественной литературы, как поэтическая речь и стиль.

Ключевые слова: Виды речи, поэтическая речь, образ, образность, сюжет, композиция, художественный язык.

KIRISH

Mohir tanqidchi Salohiddin Mamajonov haqida gap ketar ekan, albatta, uning shaxsiyatiga ham bir bor yuzlanamiz. Chunki uning ijodiy faoliyati bevosita umr chizgilariga mutanosib shaklda bo‘ladi.

Salohiddin Mamajonov (1931–2005). O‘zbekiston FANing akademigi. Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi Salohiddin Mamajonovning o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligini rivojlantirishda salmoqli hissasi bor. Yigirmadan ortiq kitob, necha yuzlab sermazmun maqolalar muallifidir.

Uning tarixiylik va zamonaviylik, she‘riyat poetikasi, badiiy uslub va ijodkor olami muammolari hamda Cho‘lpon, H. Niyoziy, H. Xudoyberdiyeva, U. Azimovga

mansub o‘nlab atoqli va yosh avlodga mansub ijodkorlar haqidagi tadqiqotlari XX asrning ikkinchi yarmidagi o‘zbek adabiyotshunosligi hamda adabiy tanqidchilik tarixida katta iz qoldirdi.¹

Buyuk munaqqid aynan XX asrning boshlarida ijod qilgan bo‘lib, o‘zbek adabiy tanqidi mafkuraviylashtirish va realizm uchun kurash bo‘lgan jarayonda o‘z mahoratini ko‘rsata bilgan vakillardan biridir. Ijodkor o‘z ijodining ko‘p qismini poeziya hamda janriy jihatlarga qaratgan bo‘lib, unda folklordan tortib, zamonaviy adabiyotgacha bo‘lgan asarlar hamda ijodkorlarni har tomonlama o‘rganib tahlil-talqin jarayonini amalga oshiradi. S.Mamajonovning boshqa munaqqidlardan yana bir farqli jihati shundaki, u tarixiylik hamda zamonaviylikni uyg‘un shaklda tanqid qila olgan, bu orqali realistlik tanqidning rivoj topishiga juda katta hissa qo‘shgan.

ASOSIY QISM.

Salohiddin Mamajonovni poetik nutq va uslub tadqiqotchisi sifatida ta’rif qilar ekanmiz, ilm yo‘lining salmoqli ko‘lamini poetikaga hamda uslubga bevosita bog‘lab bayon qilganligining guvohi bo‘lamiz. Salohiddin Mamajonov talqiniga o‘tishdan oldin, avvalo, bu tushunchalar nima o‘zi va adabiyotshunoslikda qanday ahamiyatga ega? degan savollarga javob topishimiz lozim. Aynan bu atamalar genezisi nuqtai nazaridan turlicha qarashlar keltirilgan. Poetik nutq terminiga kirishishdan oldin nutq turlariga to‘xtalishimiz darkor. Poetik nutq tushunchasiga adabiyotshunos olim, professor Bahodir Karim shunday fikrlarni keltirib o‘tadi: ”Poetik nutq-ulkan bir matn demakdir. Bu matnda akslangan voqealar rivoji jarayonidagi personajlar, so‘zlar, birikmalar hamda gaplardan iborat butunlikdir.”[1]

Bundan poetik nutq tushunchasi anchayin keng mazmunga ega ekanligini anglashimiz mumkin. Munaqqid Salohiddin Mamajonov bu jihatdan lirik janr namunalari e’tibor qaratib, nutq shakllarini qanday vosita bo‘lib kelishi va bu orqali ijodkorning qaysi xususiyati namoyon bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi. Umuman olganda, S.Mamajonov ijodining dastlabki davrlarida adabiyotshunoslikdagi namunalarning tanqidi jarayonini janrlarga bo‘lish hamda ularning syujet liniyasi, kompozitsion tahliliga yuzlanadi.

Yuzlab taqriz va maqolalaridan tashqari “She’riyat bahsida” kitobi, “Ranglar va ohanglar” kitoblari ham poeziya masalalari hamda poetik asarlar tahliliga bag‘ishlanadi. U umri davomida Cho‘lpon, H.H.Niyoziydan tortib, H.Xudoyberdiyeva, U.Azimgacha bo‘lgan o‘nlab yosh ijodkorlarga bo‘lgan tanqidiy yondashuvlari bilan XX asr tanqidchiligida ulkan iz qoldiradi.

Salohiddin Mamajonov poetik nutq jihatdan ijodkorlarni tanqidga tortar ekan, dastlabki qarashini H.H.Niyoziyga nisbat berib ta’kidlaydi. Ya’ni :”Hamza ko‘p asrlik

¹ B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot.- T.; 2012.

o‘zbek poeziyasi tarixida yangi davrni-jangovar revolutsion poeziya davrini boshlab berdi. U she‘riyatni xalqning ozodligi, baxt-saodati uchun, yangi hayot, sotsiolizm va kommunizm g‘oyalari uchun kurash quroliga aylantirdi.”²

Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodini o‘rganar ekan, uning revolutsion harakatlarini faqatgina sotsiolistik tuzum uchungina namoyon bo‘lib qolmasligini, ishchi-dehqonlarni revolutsiyaga, ya‘ni ma‘naviy rivojlanishga chorlaganini ham aytib o‘tadi. Hamza ijodini o‘rganish jarayonida, yangi janrning yorqin namunasi yaratganini talqin qilishimiz mumkin. Bu aynan, dramatik janrdir. Aynan “Padarkush” dramasi yaratilishi hamda namoyishi butun ommani revolutsion holatga chaqiriq bo‘ldi. Hamza o‘z ijod namunalari, asosan, she‘rlarida ham jangovarlik, vatanparvarlik, adolatparvarlik ruhi o‘z aksini topadi. Bu nisbatan ijodkorning poetik nutq mujassamligi bo‘lsa, boshqa tomondan ijodiy faoliyatida boshqalardan ajralib turadigan uslubi hisoblanadi.

“Uslub” tushunchasi ham munaqqid ijodining salmoqli qismini tashkil qiladi. Uslub o‘zi nima? U nima uchun ifodalanadi va ijodkor uslubini biz qaysi jihatga tayangan holda aniqlaymiz? Kabi savollar tug‘ilishi tabiiy hol.

A.V. Chicherinning quyidagi muhim fikrini: «Uslub, — deb uqtiradi u, — “priyomlar yig‘indisi” emas, tashqi forma emas, balki dunyoni shoirona idrok etish va shoirona obrazli fikrlashning eng muhim xususiyatidir. Yozuvchi har xil priyomlar bilan o‘quvchiga ta‘sir etuvchi shunchaki tajribali usta emas. U — uning o‘zi shunday ko‘radi, shunday o‘ylaydi, shunday his etadi va uning boshqacha ko‘rishi, o‘ylashi va his etishi mumkin emas, u faqat uni-buni, uchinchi narsani, ya‘ni o‘z uslubini yanada mukammallashtirishi, yanada barkamollik darajasiga yetkazishi mumkin, xolos».

«Uslub haqiqatan ham badiiy asar formasi boshlangan joydan, tasvirlash va ifodalashdan, obraz tuzilishidan “boshlanadi”, — deb yozadi A.N. Sokolov.³

Aynan uslub yuzasidan ham bir qancha zamonaviy adabiyot vakillarining ijodi munaqqid tomonidan talqin qilinadi. Oybek, Uyg‘un, Hamid Olimjon ijodlari badiiy nutq, kompozitsiya, syujet, xarakter kabi masalalarni markazga qo‘shadi.

Elster shunday ta‘kidlaydi:

«Haqiqiy uslub doim ichki, lekin shu yerda biz farqlaymiz: 1) Idrok etish uslubi va 2) Ifoda qilish uslubi. Idrok etish uslubi mazkur materialning muallif tomonidan qanday topib olinishi, qayta ishlanishi va boyitilishida, ifoda qilish uslubi muallifning o‘z ichki dunyosini obrazlar va formalar libosiga qanday o‘rashida namoyon bo‘ladi»⁴

² S.Mamajolonov. Saylanma. Toshkent. 1981.

³ A. N. Sokolov. Uslub nazariyasi. 1977.

⁴ O. Burgardt. Novije gorizonty v oblasti issledovaniya poeticheskogo stilya. (Printsipy E. Elstera). Izd. I. I. Samonenko, Kiyev, — 1915, str. 9. (O. Burgardt Elsterning 1911 yilda nashr qilingan «Prinzipien der Literaturwissenschaft» nomli kitobining aynan tarjimasini emas, balki ba‘zi joylarini ruscha misollar bilan almashtirgan va o‘z nomida nashr qilgan).

Salohiddin Mamajonov ijodining yetakchi qismini G‘afur G‘ulom hayoti va ijodiga doir maqolalar va monografiyalar tashkil qiladi. G‘afur G‘ulom ijodiyotini o‘rganish jarayonida 3 ta salmoqli monografiyani chop ettiradi. Bular “G‘afur G‘ulom prozasi”, “Shoir va zamonaviylik” hamda “G‘afur G‘ulom mahorati” deb nomlanadi. Munaqqid G‘afur G‘ulomni milliylik ramzi sifatida ko‘rsata oladi va bu fikrining isboti sifatida rus tanqidchisi Belinskiyning fikrini keltirib o‘tib: “Ulug‘ shoir uchun yuqori darajada milliy bo‘lishdan boshqa katta sharaf yo‘q, chunki busiz u ulug‘ bo‘la olmaydi”, - shoir uslubidagi o‘zgachalikni izohlab ketadi.

Oybek ijodiga ham to‘xtalib, uning uslubiy farqli jihatlarini keltirib o‘tadi hamda uni “barhayot siymo” sifatida ta’riflaydi. Uning ijodidagi erkka erishuvchanligi, she’rlar ko‘lamining anchayin salmoqli va chuqur mazmuni ekanligini, ijodida uchraydigan badiiy vositalarning ramziy ma’nolari vatan va xalq kuychisi, xalqning ezgu niyatlarini va buyuk ideallarning ifodachisi sifatida gavdalantiriladi.

Hamid Olimjon poetikasiga alohida to‘xtalib o‘tib, uning oddiy she’rlaridan tortib, dostonlarigacha badiiy tahlil orqali tanqidga tortdi. Ijodkorni noyob talant hisoblab, uning she’riyatida 3 ta san’atga xos fazilat mujassamlashganini: so‘z ishlatishdagi mohirligi; inson qalbidagi tuyg‘ularni, kechinmalarni yorqin mujassam eta olishi; odamlar jasoratini haqqoniy tasvirlab bera olishi bilan nodir gavhardir. Salohiddin Mamajonov shoirning “Rossiya”, “Roksananing ko‘z yoshlari”, “Jangchi Tursun” kabi she’rlarining badiiy xususiyatlari, ya’ni syujet liniyasi, kompozitsiyasi, badiiy nutq jihatdan tanqid qiladi.

XULOSA.

Salohiddin Mamajonov buyuk tanqidchi sifatida tanqidchilik tarixida ulkan iz qoldirdi. Bir qancha tanqidiy asarlarni nashr ettirib, tarixiy hamda zamonaviy adabiyot vakillarining lirik namunalarini tanqid ostiga oldi va ularning ijodini yanada yuksalishiga olib kelgan. Hatto N.Qobilov bilan hamkorlikda yillar davomida unutilib kelayotgan Botu ijodini o‘rganib, nashr qildiradi. Cho‘lpon haqidagi badiiy portretining shakllanishiga hissa qo‘shdi. Bir ma’lumotni ham keltirib o‘tishimiz joizki, Farg‘ona davlat universiteti filologiya fakulteti professori, olimi Yo‘ldoshxo‘ja Solijonovning ilm yo‘lboshchisi ekanligi bilan ham e’tiborlidir. U o‘z ustozini to‘g‘risida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi hamda “El netib topgay menikim...” nomli maqolasini ham yozadi. Kamtar va bag‘rikenglik, ishchan va kurashuvchan tanqidchi sifatida bir qancha shogirdlarning ustozidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Mamajonov. Saylanma. Toshkent. 1981.
2. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot. -T., 2012.
3. A. N. Sokolov. Uslub nazariyasi. 1977.
4. Y.Solijonov. El netib topgay menikim.. maqolasi. Farg‘ona.

5. www.ziyo.com kutubxonasi
6. Wikipedia sayti

